ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

# Nikoh-oila munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: nazariya va amaliyot masalalari

Q'oqon davlat Pedagogika Universiteti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Huquq fakulteti o'qituvchisi Xujamatova Xayotxon Mansurovna

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada Nikoh-oila munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari: nazariya va amaliyot masalalari jumladan, oilaviy munosabatlar sohasida ham asrab-avaylash va qo'llab-quvvatlash, oila va onalik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning darajasi haqida hamda qator xorijiy mamlakatlarda oila va nikoh maqomi masalalari qisqacha yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: oila , an'anaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, nson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, demokratik islohotlar, Konstitutsiya, davlat siyosati

# Конституционно-правовые основы брачно-семейных отношений: теория и практические вопросы

Коканский государственный педагогический университет
Факультет педагогики и социальных наук
Преподаватель юридического факультета: Хужаматова Хаётхон Мансуровна

Абстрактный. В статье кратко рассматриваются конституционно-правовые основы брачно-семейных отношений: вопросы теории и практики, в том числе защита и поддержка семейных отношений, создание благоприятных условий для семьи и материнства, их уровень, а также статус семьи и брака в ряде зарубежных стран.

Ключевые слова: семья, традиционные ценности, семейные отношения, Всеобщая декларация прав человека, демократические реформы, Конституция, государственная политика

# Constitutional-legal foundations of marriage-family relations: theory and practical issues

Kokand State Pedagogical University
Faculty of Pedagogy and Social Sciences
Faculty of Law Teacher Khuzamatova Khayotkhon Mansurovna

**Abstract.** This article briefly discusses the constitutional and legal foundations of marriage and family relations: issues of theory and practice, including the protection and support of family relations, the creation of favorable conditions for family and motherhood, their level, and the status of family and marriage in a number of foreign countries.

**Keywords:** *family, traditional values, family relations, Universal Declaration of Human Rights, democratic reforms, Constitution, state policy*

## KIRISH

Dunyoda sodir bo'layotgan jo'shqin voqealar ko'plab mamlakatlarning an'anaviy qadriyatlarni, shu jumladan, oilaviy munosabatlar sohasida ham asrab-avaylash va qo'llab-quvvatlash istagini namoyish etmoqda. Ularni qo'llab-quvvatlash zarurati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining mazmunidan kelib chiqadi, unda erkaklar va ayollarning hech qanday cheklovlarsiz turmush qurish va oila qurish huquqi mustahkamlangan, shuningdek, oila davlat tomonidan himoya qilinadigan jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini ekanligi belgilab qo'yilgan (16-modda). Shu nuqtayi nazardan, oila va onalik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning darajasi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Save the Children xalqaro tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan reytingda baholanishi muhim ahamiyatga ega.

Jahonda demokratik islohotlar amalga oshirilayotgan qator xorijiy mamlakatlarda oila va nikoh maqomi masalalari Konstitutsiyalar darajasida tartibga solingani ularning ahamiyati va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganidan dalolatdir. Biroq, qonuniy hal qilishni talab qiladigan ko‘plab muammolar mavjud, huquqni qo‘llash amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, oilaviy munosabatlar sohasida hali ham inson huquqlarining buzilishi holatlari mavjud va ayrim hollarda oila instituti shubha ostiga olinadi. Shu bilan birga, butun jamiyat taraqqiyotining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan oila va nikoh institutlarini himoya qilish darajasiga bog‘liq.

O‘zbekistonda bu boradagi davlat siyosati tubdan isloh qilinib, oila va nikoh institutlarini mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi. Oilaviy munosabatlar ishtirokchilarining konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Masalan, yosh oilalarni uy-joy bilan ta’minlash, subsidiyalar, ta’lim grantlari va ssudalar ajratish va hokazo. Aynan oilada asosiy qadriyatlar shakllanadi, dastlabki huquqiy tushunchalar, o‘z huquq va manfaatlarini anglash, oila a’zolari tomonidan o‘z burchlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik mas’uliyati qaror topadi.

Shu bilan birga, ushbu masalaning ilmiy rivojlanish darajasini yetarli deb hisoblash mumkin emas. Huquqiy tadqiqotlar oiladagi munosabatlar, nikoh munosabatlari, oila a’zolarining huquqiy holatini ma’muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy tartibga solishning ayrim jihatlariga bag‘ishlangan. Xususan, nikoh va oilaviy munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari har tomonlama (kompleks) o‘rganilmagan. Bundan tashqari, oilaning uzviy institut sifatidagi voqeligiga oid ko‘pgina tadqiqotlar bugungi kunga kelib tubdan o‘zgargan sharoitlarda amalga oshirilganligini hisobga olish kerak. Yangilangan Konstitutsiyada oila va nikoh institutlariga yondashuvlar sezilarli darajada isloh qilindi, bu esa jiddiy tahlil va tadqiqotni talab etadi. Bu dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi va ularni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish masalalarini ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAXLILI**

Oila va nikoh institutlarining ayrim nazariy jihatlari X.T. Odilqoriyev, A.X. Saidov, J.Toshqulov, N.J.Yusupova kabi olimlarning asarlarida o‘rganilgan. Ushbu masalaning ayrim jihatlari fuqarolik va oilaviy huquq bo‘yicha mutaxassislarning ishlarida ko‘rib chiqilgan: G.S.Inomjonova (ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar), Z.N.Esanova (otalikni belgilash masalalari), I.B.Djurayeva (er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy hamda mulkiy huquqlar).

U.M.Mahmudxo‘jayevaning dissertatsiya tadqiqotida “Ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni oilaviy va fuqaroviy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish” (DSc) “oila”, “otalik”, “bolalik”, “onalik”, “bola” kabi toifalar tushunchalari ochib berilgan, oilaviy munosabatlarning huquqiy jihatlari tahlil qilingan. H.B.Abdurahmonova va N.X.Rahmonqulovalarning dissertatsiyalarida nikoh munosabatlarini, shuningdek, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning xususiy huquqiy masalalarini o‘rganilgan.

Ko‘rib chiqilayotgan masalalarning ayrim jihatlari quyidagi sohalardagi mutaxassislar o‘zlarining ishlarida aks ettrishgan, ya’ni davlat va huquq nazariyasi yo‘nalishida – Sh.N.Gafforova (xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi), konstitutsiyaviy huquq yo‘nalishida - K.R.Aliyeva (gender tengligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari), Sh.A.Alijonova, J.Dadaboyeva (oilaviy munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari), xalqaro huquq yo‘nalishida – G.Matkarimova (gender tengligining xalqaro

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



huquqiy jihatlari), sotsiologiya yo‘nalishida – M.M.Muhammadyunusova (Yangi O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlashning milliy xususiyatlari) va boshqalar.

Xorijda bu muammo bilan D.Gomen, R.Key, D.Xarris, S.Uorren, Savigny, L.Bar, H.Neuman, J.T.Pardeck, M.Blair, M.Weiner, B.Stark, S.Maldonado, H.Crouch, B.Franklin, A.V.Ageyeva, A.I.Augustinovichyute, T.V.Galkina, D.V.Olshanskiy, O.I.Rudik, L.V.Sayenko, D.N.Stepanova, Sh.S.Shushaniya va boshqalar shug‘ullanishgan.

O‘zbekistonda kompleks kategoriya sifatida konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan oilaviy-nikoh munosabatlari monografik darajada o‘rganilmagan. Nikoh-oila munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari masalalari haligacha huquqshunos olimlarning tegishli e’tiborini jalb etmagan. Oila va nikohga nisbatan davlat faoliyatining konstitutsiyaviy asoslari haligacha chuqur va har tomonlama o‘rganilmagan. Shuning uchun bunday tadqiqotlarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari muhim katta ahamiyatga ega.

**ASOSIY QISM**

O‘zbekistonda oila-nikoh munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tushunchasi, mohiyati va mazmunini har tomonlama (kompleks) o‘rganish, oila va nikohning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Ushbu maqsad tadqiqotning quyidagi vazifalarni hal qilishni talab etadi:**

- oila va nikoh institutlarining konstitutsiyaviy-huquqiy tavsifini, xususiyatlarini ishlab chiqish;
- oila va nikoh munosabatlarining mohiyati va mazmunini, shuningdek, oila va nikohni muhofaza qilish bo‘yicha faoliyatni tahlil qilish;
- oila va nikoh munosabatlari subyektlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini aniqlash;
- oila va nikoh sohasidagi xalqaro huquqiy standartlarni tahlil qilish;
- oila va nikohni himoya qilishning konstitutsiyaviy va huquqiy kafolatlarini, shuningdek, oila-nikoh munosabatlari ishtirokchilari manfaatlarini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish;
- qonunchilikni va oila-nikoh munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** oila va nikoh institutlarining faoliyati bilan bog‘liq konstitutsiyaviy va huquqiy munosabatlar yig‘indisidir.

**Tadqiqot predmetini** oila va nikoh munosabatlarining konstitutsiyaviy asoslariga oid ilmiy tushunchalar, nazariyalar, qarashlar va yondashuvlar, shuningdek, tegishli qonunchilik normalari va huquqni qo‘llash amaliyoti tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot davomida tizimli, funksional, qiyosiy-huquqiy tahlil, shuningdek, tarixiy, mantiqiy, statistik, sotsiologik so‘rov, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Bundan tashqari, dissertatsiya tadqiqotining uslubiy asosini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzalarida bayon etilgan innovatsion g‘oyalar va konseptual qoidalar tashkil etadi.

**XULOSA**

O‘zbekiston huquq fanida oila-nikoh munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qilishga, shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda ushbu huquqiy institutlarni himoya qilish faoliyatiga bag‘ishlangan ilk monografik tadqiqotdir. O‘tkazilgan tadqiqot oila va nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarga asoslangan.

Mazkur tadqiqotning xulosalari va natijalaridan oila-nikoh munosabatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, o‘rganish natijalari yuridik ta’lim

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



muassasalarining o‘quv jarayonida, shuningdek, adliya organlari va boshqa vakolatli organlar faoliyatida ham qo‘llanilishi mumkin.

Ma’lumki, inson baxt-saodati uchun oila muhim o‘rin egallaydi. Zotan, oila – bu yashash muhiti, insonni shakllantiruvchi makon. Har bir inson dunyoga kelgach, oila muhitida hayot uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondirib, voyaga yetadi. Bola oila quchog‘ida, ota-onasi va yaqin kishilari qurshovida o‘zini to‘liq muhofazalangan va baxtli sezadi. Oila inson kamolotining oltin beshigidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, poydevori mustahkam bo‘lgan har qanday bino uzoq yillar davomida avloddan-avlodga bezavol o‘tavergani kabi sog‘lom oila muhiti kelajagimizning poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek “...Bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan. Odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi”.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 20.10.2023 йилдаги 550-сон. збекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Никоҳ, оила ва фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тизимлаштириш тўғрисида
2. Оила ва никоҳ муносабатларининг ҳуқуқий тартиби. ТОШКЕНТ – 2018
3. Оила ва никоҳ тушунчаларининг илмий-фалсафий, ижтимоий-ҳуқуқий талқини. Рустамова Нилуфар Рустамовна Тошкент шаҳар Чилонзор тумани 2-сонли ФҲДЁ мудираси
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2023. -Б. 43.
5. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: Расмий нашр - - Тошкент.: “Адолат”, 2021. –Б. 8-10.
6. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли луғат). Тошкент: Янги аср авлоди. 2002. -Б. 149.
7. Рўзиева Н. Ёшлар тарбиясида ўзбек оилалари урф-одатларининг ўрни // “Баркамол авлод тарбиясининг маънавий-аҳлоқий, ҳуқуқий, экологик, валеологик, акмеологик ва иқтисодий масалалари” Республика илмий-амалий конференция материаллари. -Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. 2010. -Б. 318.
8. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: Расмий нашр - - Тошкент.: “Адолат”, 2021. –Б. 10.
9. https://sirdaryo.adliya.uz/sirdaryo/uz/publikatsii/detail.php?ID=12078